

“Foyda bilan yoqilg‘i quyuing va keshbek oling” marketing aksiyasini o‘tkazish qoidalari

1. Umumiy qoidalar

- 1.1. Mazkur Qoidalar “Foyda bilan yoqilg‘i quyuing va keshbek oling” marketing aksiyasini o‘tkazish tartibi, shartlari va muddatlarini belgilaydi.
- 1.2. Aksiya tashkilotchisi — “Orient Finans” XATB
- 1.3. Aksiya o‘tkazilish muddati: 2026-yil 1-apreldan 2026-yil 31-maygacha.
- 1.4. Aksiya Bank mobil ilovasini rivojlantirish, masofaviy bank xizmatlaridan foydalanishni rag‘batlantirish hamda naqd pulsiz hisob-kitoblarni kengaytirish maqsadida o‘tkaziladi.

2. Aksiya ishtirokchilari

- 2.1. Aksiyada 18 yoshga to‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari — jismoniy shaxslar ishtirok etishi mumkin. Aksiyada ishtirok etish mazkur Qoidalarga to‘liq va shartsiz rozilik bildirilganini anglatadi.
- 2.2. “Orient Finans” XATB xodimlari, ularning yaqin qarindoshlari, shuningdek aksiyani tashkil etish va o‘tkazishda bevosita ishtirok etgan boshqa shaxslar aksiyada ishtirok etish huquqiga ega emas.
- 2.3. Aksiya shartlariga rioya etilmagan taqdirda, Bank ishtirokchini sabablarni ko‘rsatmagan holda aksiyadan chetlashtirish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

3. Ishtirok etish shartlari

- 3.1. Aksiyada ishtirok etish uchun mijoz Bankning tegishli bo‘limlarida Uzcard to‘lov kartasini rasmiylashtirishi shart.
- 3.2. Mijoz Uzcard to‘lov kartasi ochilganidan so‘ng aksiyada ishtirok etish huquqiga ega bo‘ladi.
- 3.3. Aksiya doirasida faqat Uzcard to‘lov kartalari orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hisobga olinadi.
- 3.4. Uzcard to‘lov kartalari orqali avtomobillarga yoqilg‘i quyish shoxobchalarida (AYOQSh), shu jumladan benzin, suyultirilgan gaz va siqilgan gaz uchun amalga oshirilgan to‘lovlar bo‘yicha keshbek hisoblanadi.
- 3.5. Keshbek miqdori tegishli tranzaksiya summasining 10 (o‘n) foizini tashkil etadi.
- 3.6. Har bir ishtirokchi uchun keshbekning maksimal miqdori 100 000 (yuz ming) so‘mni tashkil etadi hamda mazkur summa aksiya amal qilish muddati davomida faqat bir marotaba to‘lanadi.

4. Keshbekni hisoblash tartibi

- 4.1. Keshbek Aksiya shartlariga muvofiq ravishda amalga oshirilgan tranzaksiyalar asosida hisoblanadi.
- 4.2. Hisoblangan keshbek mablag‘lari mijozning Bankdagi tegishli kartasiga naqd pulsiz shaklda, ya‘ni tranzaksiya amalga oshirilgan Uzcard to‘lov kartasi hisobiga o‘tkaziladi.
- 4.3. Keshbek Bank tomonidan belgilangan muddatlarda to‘lanadi, biroq har qanday holatda ham tegishli tranzaksiya amalga oshirilgan sanadan e‘tiboran 30 (o‘ttiz) ish kunidan kechiktirilmay o‘tkaziladi.

4.4. Bank Aksiya shartlari buzilganligi yoki suiiste'mollik (firibgarlik) alomatlari aniqlangan taqdirda keshbekni hisoblash va/yoki to'lashni rad etish huquqini o'zida saqlab qoladi.

4.5. Bank bahsli holatlar bundan mustasno, Aksiya doirasida ishtirokchilar bilan yozma shaklda qo'shimcha muzokaralar olib borish majburiyatini olmaydi.

5. Moliyaviy shartlar

5.1. Aksiya Bank mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.

5.2. Keshbek naqd pulga almashtirilmaydi va uchinchi shaxslarga berilmaydi.

5.3. Bank keshbek hisoblash shartlarini o'zgartirish huquqiga ega, bunda bu haqda kamida 3 ish kuni oldin www.ofb.uz rasmiy saytida xabar beriladi.

6. Aksiyani o'tkazish

6.1. Bank mazkur Qoidalarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqiga ega.

6.2. Aksiyada ishtirok etish ishtirokchining ismi, familiyasi va boshqa ma'lumotlaridan reklama va axborot maqsadlarida mukofotsiz foydalanishga rozilikni anglatadi.

6.3. Bank aksiyada ishtirok etishga ta'sir ko'rsatgan texnik nosozliklar uchun javobgar emas.

6.4. Barcha nizolar muzokaralar yo'li bilan, kelishuvga erishilmagan taqdirda esa O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sud tartibida hal etiladi.

7. Ishtirokchilarni xabardor qilish

7.1. Aksiya ishtirokchilarini xabardor qilish quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi:

- reklama materiallarini joylashtirish;
- Bankning ijtimoiy tarmoqlarida e'lonlar berish;
- Bank rasmiy saytida ma'lumot joylashtirish.

7.2. Aksiya haqida batafsil ma'lumot www.ofb.uz saytida joylashtiriladi.

7.3. Qo'shimcha ma'lumotni Bankning aloqa markazi orqali olish mumkin: (+998 71) 200-88-99, 4004.

8. Yakuniy qoidalar

8.1. Aksiyada ishtirok etish mazkur Qoidalarga rozilikni anglatadi.

8.2. Barcha bahsli masalalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq hal etiladi.